




# QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qashqadaryo viloyatining  
sanoat ishlab chiqarishi  
2023- yil yanvar - iyun oylari  
(dastlabki ma'lumot)



**Tel.: 75-221-32-36**  
**[www.qashstat.uz](http://www.qashstat.uz)**


## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 058 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 739 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,2 % i) Qarshi shahriga, 441 tasi (10,9 %) Kitob tumaniga, 365 tasi (9,0 %) Yakkabog' tumaniga, 318 tasi (7,8 %) G'uzor tumaniga va 293 tasi (7,2 %) Shahrisabz shahriga to'g'ri kelmoqda.


### Jami faoliyat yuritayotgan

(1- iyul holatiga ko'ra)



### Jami yangi tashkil etilgan

(1- iyul holatiga ko'ra)



### Qarshi sh.




Faoliyat yuritayotgan

yangi tashkil etilgan

## Qashqadaryo viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari




**Sanoat** – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 14 212,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,6 % ni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (27 471,8 ming so'm), G'uzor tumanida (8 884,5 ming so'm) hamda Qarshi shahrida (5 698,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 061,8 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.




ming. so'mda      o'sish sur'ati, % da

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 11 484,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,8 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyun  
mlrd. so'mda




2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nishon tumani (31,6 %), G'uzor tumani (13,7 %), Qarshi shahri (11,7 %), Qarshi tumani (7,2 %) hamda Kasbi tumani (6,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.


yanvar-iyun  
FHI, % da



yanvar-iyun  
ulushi, % da



**yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha**  
(O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da\*)




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan  
ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Chaqiq tosh ming t.	9,8	18,5	8,7
Neft, ming t.	10,2	5,9	- 4,3
Tabiiy gaz, mln. kub.m	324,7	42,1	- 282,6
Gaz kondensati, ming t.	58,8	52,3	- 7,5

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,0 % (21,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 25,4 % (2,4 %), quyi texnologiyali 40,1 % (49,0 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 0,03 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 43,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 18,0 %), to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,0 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %)ga to'g'ri keldi.

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,0 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,3 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,4 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 141,1 %)ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 38,3 ming tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,4 %), 33,1 ming tonna kalava ip (120,3 %), 991,8 ming. litr aroq mahsulotlari (88,3 %) hamda 19,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (24,9 % ) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Dezil yoqilg'isi ming t.	0,1	204,7	204,6
Paxta chigiti ming t.	46,5	71,3	24,8
Kalava ip ming t.	26,3	33,1	6,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni ming t.	76,7	19,1	- 57,6
Paxta tolasi ming t.	31,4	38,3	6,9


\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



## Metallurgiya sanoati

**Metallurgiya sanoati** – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 18,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 8.8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 161,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 661,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1603,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish** – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 115,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 72,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 25,0 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 % ni tashkil etdi, ishlab chiqarish hajmi 3 554,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 126,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 352,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 20,0 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 92,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 840,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish** – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 141,1 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 47,0 mlrd. so‘m kuzatildi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

**Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish** – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 179,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 50,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish** – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,03 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 43,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-iyun oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 78,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 105,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4 955,7	4 068,0	- 887,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 598,1	1 684,6	86,5



(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 125,8 % ni hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 75,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	6,8	5,2	- 1,6
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	27,4	52,8	25,4

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2 388,6 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,7 %, uning jami sanoatdagi ulushi 16,8 % ga to'g'ri keldi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari



65,0 %

2023-yil  
yanvar-iyun



63,8 %

2022-yil  
yanvar-iyun



2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 1 493,2 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 4,4 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Mirishkor tumani (140,3 %), Muborak tumani (137,0 %) hamda Dehqonobod tumani (116,6 %) viloyat korxonalarini tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

### Nooziq-ovqat mahsulotlar



35,0 %

2023-yil  
yanvar-iyun



36,2 %

2022-yil  
yanvar-iyun



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 65,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 35,0 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 63,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 36,2 % ni tashkil etdi.




Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 104,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 102,8 % ga to'g'ri keldi.




## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

**Iste'mol tovarlari** – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 20,6 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 12,4 %, Yakkabog' tumani 7,0 %, Shahrisabz shahri 6,7 % ekanligi kuzatildi.






Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol tovarlarining ulushi




## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 682,6 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 1 691,9 ming so'mni, Muborak tumanida – 1 186,6 ming so'mni, Chiroqchi tumanida – 1 133,3 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 1 102,4 ming so'mni va Mirishkor tumanida 841,8 ming so'mni tashkil etdi.





## Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 12,0 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 11,0 % ni, Koson tumani 8,1 % ni va Yakkabog' tumani 7,2 % ni tashkil etdi.





## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 26,2 % ni, Chiroqchi tumaniga 13,7 % va Mirishkor tumaniga 7,2 % ekanligi kuzatildi.



*Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi*



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 010,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,2 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,9 % ni tashkil etgan.

